O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



## 2023- YIL YANVAR-DEKABR

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

*Dastlabki ma’lumot*



## 2024- yil 1-yanvar holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

| | |
|---|---|
| Toshkent sh. | 7 310 |
| Farg‘ona | 2 969 |
| Toshkent | 2 900 |
| Buxoro | 2 688 |
| Qashqadaryo | 2 578 |
| Samarqand | 2 530 |
| Surxondaryo | 2 323 |
| Andijon | 2 111 |
| Qoraqalpog‘iston R. | 1 931 |
| Xorazm | 1 768 |
| Namangan | 1 666 |
| Jizzax | 1 536 |
| Navoiy | 1 390 |
| Sirdaryo | 1 049 |

2024- yilning 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 34 749 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya’ni 7 310 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarning 21,0 % i Toshkent shahrida joylashgan.

### Qurilish korxonalari soni, birlikda






Shuningdek, Farg‘ona viloyatida 2 969 ta (respublika bo‘yicha ularning jami soniga nisbatan 8,5 %), Toshkent viloyatida – 2 900 ta (8,3 %) qurilish korxonalari mavjud bo‘lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko‘rsatkichga ega.

# 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

*hajmi mlrd. so‘mda va o‘sish sur’ati*




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida, O‘zbekiston Respublikasida jami 149 864,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, 2022-yilga nisbatan 106,4 % ni tashkil etdi.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

*o‘sish sur’ati o‘tgan yilga nisbatan, % da, mlrd. so‘m*



# 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 70,4 % i yoki 105 489,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**31 881,7** mlrd. so‘m

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 31 881,7 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 30,2 % ni tashkil etdi.

**30,2 %**

**45,8 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 48 320,3 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 45,8 % ni tashkil etdi.

**48 320,3** mlrd. so‘m

**25 287,2** mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 25 287,2 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 24,0 % ni tashkil etdi.

**24,0 %**

**2023-yilda yangi qurilishning oylar kesimidagi dinamikasi,** *mlrd. so‘m*



## 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi

mlrd. so‘mda

| | 2022-yil | 2023-yil | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|
| **O‘zbekiston Respublikasi** | **97 568,6** | **105 489,2** | **100,0** |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 3 868,6 | 4 470,7 | 4,2 |
| Andijon | 4 866,5 | 5 093,7 | 4,8 |
| Buxoro | 6 074,8 | 6 832,2 | 6,5 |
| Jizzax | 2 544,8 | 3 179,9 | 3,0 |
| Qashqadaryo | 5 035,9 | 5 754,8 | 5,5 |
| Navoiy | 4 719,0 | 5 345,8 | 5,1 |
| Namangan | 4 714,3 | 5 808,8 | 5,5 |
| Samarqand | 6 652,9 | 6 890,0 | 6,5 |
| Surxondaryo | 5 553,3 | 5 539,7 | 5,3 |
| Sirdaryo | 2 462,7 | 3 092,4 | 2,9 |
| Toshkent | 9 597,8 | 8 951,2 | 8,5 |
| Farg‘ona | 6 125,6 | 7 241,0 | 6,9 |
| Xorazm | 3 782,0 | 4 411,1 | 4,2 |
| Toshkent sh. | 22 498,4 | 21 451,5 | 20,3 |

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (21 451,5 mlrd. so‘m), Toshkent viloyati (8 951,2 mlrd. so‘m), Farg‘ona viloyati (7 241,0 mlrd. so‘m) va Samarqand viloyatida (6 890,0 mlrd. so‘m) qayd etildi.

### Yillar kesimida yangi qurilish ishlari

*jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. so‘m*



# 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

**O‘sish sur’ati**




**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo‘jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo‘ljallangan obyektlar kiritiladi.

**70,1 %**

**105 020,1**
**mlrd. so‘m**

**Bino va inshootlar qurish**

**20,6 %**

**30 962,6**
**mlrd. so‘m**

**Fuqarolik obyektlarini qurish**

**9,3 %**

**13 881,4**
**mlrd. so‘m**

**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari**

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 70,1 % ulushni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan 103,8 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 20,6 % ulushni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan 105,1 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 9,3 % ulushni va 2022- yilga nisbatan 135,0 % ni tashkil etdi.

## 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko‘rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo‘yicha*

**26 420,4**
mlrd. so‘m
112,2 %

**Yirik qurilish tashkilotlari**




**49 354,4**
mlrd. so‘m
107,8 %

**Kichik korxona va mikrofirmalar**




**29 245,3**
mlrd. so‘m
105,8 %

**Norasmiy sektor**




***Jami bino va inshootlarni qurish* - 105 020,1 *mlrd. so‘m***

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 25,2 % ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan 2,4 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2022- yilga nisbatan 1,0 % punktga ko‘payib 47,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilga nisbatan 1,4 % punktga ko‘payib, 27,8 % ni tashkil etdi.

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq **“Qurilish faoliyati bo‘yicha o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi”** ko‘rsatkichi qo‘llaniladi.

# 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida bino va inshootlar qurilishi




*Ma’lumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Jizzax viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 83,6 % i), Navoiy viloyati (80,0 %) va Surxondaryo viloyati (76,7 %)da kuzatildi.




Jizzax viloyati




Navoiy viloyati




Surxondaryo viloyati

# 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko‘rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo‘yicha*

| Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
|---|---|---|
| 8 273,6 mlrd. so‘m | 22 675,6 mlrd. so‘m | 13,4 mlrd. so‘m |
| 90,7 % | 111,5 % | 77,9 % |










***Jami fuqarolik obyektlarini qurish* – 30 962,6 *mlrd. so‘m***

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 26,7 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 4,2 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 73,2 % (4,2 % punktga ko‘paydi). Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilga nisbatan o‘zgarishsiz qolib, 0,1 % ni tashkil etdi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo‘llari, ko‘chalar, ko‘priklar va tunnellar, temir yo‘llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug‘orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og‘ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

# 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish




*Ma’lumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 69,1 % i), Sirdaryo viloyati (34,7 %) va Buxoro viloyati (25,7 %)da kuzatildi.




Samarqand viloyati




Sirdaryo viloyati




Buxoro viloyati

## 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish asosiy ko‘rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo‘yicha*

**3 256,1**
mlrd. so‘m
106,9 %

**Yirik qurilish tashkilotlari**

**10 625,3**
mlrd. so‘m
146,8 %

**Kichik korxona va mikrofirmalar**







***Jami ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari*** **- 13 881,4** *mlrd. so‘m*

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilga nisbatan 6,1 % punktga kamaydi va 23,5 % ni tashkil etdi.

Qolgan 76,5 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2022- yilga nisbatan 6,1 % punktga ko‘paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo‘yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog‘ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o‘z ichiga oladi.

# 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




*Ma’lumot uchun:* Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Namangan viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 17,4 % i),Toshkent shahri (15,5 %) va Toshkent viloyatida (12,5 %) kuzatildi.




Namangan viloyati




Toshkent sh.




Toshkent viloyati

# 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida korxonalar turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so‘mda*

| | |
|---|---|
| Yirik qurilish tashkilotlari | 37 950,1 |
| Kichik korxona va mikrofirmalar | 82 655,3 |
| Norasmiy sektor | 29 258,7 |

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

## Jami hajmga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxona va mikrofirmalar




Norasmiy sektor

2022- yil bilan solishtirganda – **95,2** %

2022- yil bilan solishtirganda – **112,7** %

2022- yil bilan solishtirganda – **105,8** %

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

*jamiga nisbatan ulushi*




**2022- y.**




**2023- y.**

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 37 950,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilga nisbatan 95,2 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,2 % ga kamayib, 25,3 % ni tashkil etdi.

**Xo‘jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

*Jami yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi* – **37 950,1** *mlrd. so‘m*

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

*oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so‘m*



# 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar

*Hududlarning kesimida*






*Ma’lumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Toshkent shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 28,3 %), Qashqadaryo viloyatida (26,2 %) va Sirdaryo viloyatida (23,8 %) qayd etildi.

## Jamiga nisbatan ulushi




Toshkent sh.




Qashqadaryo viloyati




Sirdaryo viloyati

## Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

*jamiga nisbatan ulushi*




**2022- y.**




**2023- y.**

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,2 % i to‘g‘ri kelib, 2022- yilga nisbatan 2,6 % punktga ko‘paydi.

Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilga nisbatan 112,7 % ni tashkil etgan holda 82 655,3 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

***Jami kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi* – 82 655,3 *mlrd. so‘m***

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

*oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so‘m*



# 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlari

*Hududlar kesimida*






*Ma’lumot uchun:*
ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahriga (22 527,4 mlrd. so‘m), Toshkent viloyati (7 419,2 mlrd. so‘m), Samarqand viloyatiga (7 347,0) to‘g‘ri keldi.

## *Jamiga nisbatan ulushi*




Samarqand viloyati




Qashqadaryo viloyati




Andijon viloyati

## 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor *jamiga nisbatan ulushi*




**2022- y.**




**2023- y.**

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 19,5 % ni yoki 29 258,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan 105,8 % ga yetdi.

Shundan 21 676,5 mlrd. so‘mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to‘g‘ri kelib, 2022- yilga nisbatan 109,9 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 3 610,7 mlrd. so‘mni va 82,0 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta’mirlash ishlari 3 917,5 mlrd. so‘mni va 111,8 % ni tashkil etdi.

## Norasmiy sektor qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

*oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so‘m*



# 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

### *Hududlar kesimida*






*Ma’lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent viloyatida (3 953,5 mlrd. so‘m), Toshkent shahrida (3 953,5 mlrd. so‘m) va Buxoro viloyatida (2 778,1 mlrd. so‘m ) qayd etildi.

## *Jamiga nisbatan ulushi*



Xorazm viloyati



Namangan viloyati



Navoiy viloyati

# Mulkchilik shakli davlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

*Jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. so‘m*

## HUDUDLAR KESIMIDA




| | | |
|---|---|---|
| 2019-y. | 3 854,8 | 5,4 % |
| 2020-y. | 3 993,7 | 4,5 % |
| 2021-y. | 5 603,3 | 5,2 % |
| 2022-y. | 4 085,6 | 3,1 % |
| 2023-y. | 4 151,9 | 2,8 % |

***Ma’lumot uchun:*** nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Navoiy viloyatida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 6,8 % i), Xorazm viloyatida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 5,3 % i) va Buxoro viloyatida (ushbu hududagi umumiy qurilish ishlarining 4,9 % i) qayd etildi.

# Mulkchilik shakli nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

| Jizzax viloyati | Toshkent viloyati | Farg‘ona viloyati | Samarqand viloyati | Buxoro viloyati |
|---|---|---|---|---|
| 35 364,3 mlrd. so‘m | 14 018,8 mlrd. so‘m | 9 929,4 mlrd. so‘m | 9 855,2 mlrd. so‘m | 9 330,7 mlrd. so‘m |
| 100,9 % | 107,0 % | 111,0 % | 113,3 % | 106,3 % |

**YANVAR-DEKABR: 145 712,2** *mlrd. so‘m*

## Hududlar kesimida




***Ma’lumot uchun:*** davlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,7 % i), Surxondaryo viloyatida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,4 % i) va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (ushbu hududagi umumiy qurilish ishlarining 98,1 % i) qayd etildi

*Jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. so‘m*

| 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. |
|---|---|---|---|---|
| 67 301,7 | 84 136,6 | 101 889,4 | 126 705,3 | 145 712,2 |
| 102,1 % | 102,1 % | 94,8 % | 96,9 % | 97,2 % |

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta’mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o‘zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta’minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o‘rnatish, devorlarni ko‘tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o‘ziga olgan holda obyektni qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko‘rsatadi yoki ish jabhasini ta’minlaydi, ularni qabul qiladi va to‘lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlari** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog‘liq chuqur qidiruv burg‘ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo‘yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug‘ullanuvchi burg‘ulash tashkilotlarini o‘z ichiga oladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi**
**Tel. 71 203-80-00 (1161)**